
HAMMASI XALQIMIZ UCHUN...

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

Ravon yo'l qurish, yoz va qish chillasida aynan yo'llarda duch kelinadigan qiyinchiliklarga barham berish maqsadida shu kecha-kunduzda Rishton tumanida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bu borada ichki yo'llar ham bosqichma-bosqich ta'mirlanib, asfalt qilinayotgani, ichki ko'chalarda shag'allashtirish ishlari olib borilayotgani aholiga katta qulayliklar yaratmoqda.

????Xususan, hozirgi vaqtda "Miskin" MFY xududida obodonlashtirish ishlari tashkil qilinib mahalla xududidagi ichki ko'chalarda tosh, shag'al yotqizish ishlari olib borilmoqda. "Miskin" MFY Oltin vodiy ko'chasida 300 mert masofadagi ichki yo'llar shag'allashtirildi.

????— Aziz va qutlug' bayram — O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligi bayramiga ham sanoqli kunlar qoldi. Mahallamizdagilar allaqachon bayram kayfiyatida. Tozalik, obodlikni o'zlariga shior qilib olganlar ko'chalar, qabriston atroflari, xonadonlarni orasta qilib, daraxtlarga shakl beryaptilar. Ta'mirga mahtal ko'chalarning asfalt qilinayotgani esa bayramga sovg'a bo'ldi, -deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Madaminjon Dehqonov.

????Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-08-27 06:17:10